

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O'RGANISH VA FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI

M. Farhodova¹

Annotatsiya:

Maqolada ta'limga texnologik yondashuvning zaruriy ahamiyati hamda ta'limni rivojlanishini, izchilllik, tizimlilik tamoyillarini joriy etish, innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishda pedagogik faoliyatdagi asosiy o'zgarishlar, innovatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llash natijasida pedagogik metodlar, ta'limni tashkil etish shakllari va ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi rolini aniqlashtirish masalalari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, texnologiya, yondashuv, innovatsiya, metod, tizim, tamoyil, aniqlash, rivojlantirish.

doi: <https://doi.org/10.2024/5cexfa29>

Mavzuning dolzarbliji. Hozirgi zamon ta'lim tizimi asosida texnologik innovatsiyalar, zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalar yotadi. Bu texnologiyalarni ta'limda qo'llash natijasida pedagogik metod va usullarda, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar mehnatini tashkil etish shakllarida, ta'limning iqtisodiy mexanizmida va hatto hozirgi zamon ta'lim nazariyasi va metodologiyasida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Bu zamonaviy ta'lim menejmentining muhim o'ziga xos hususiyatini belgilab berdi. Hozirgi vaqtida ta'limning yangi tashkiliy tuzilmalari, uning yangi turi va shakllari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida paydo bo'lmoqda. Dunyoning qator mamlakatlarida zamonaviy nodavlat gumanitar universitetlar, universitetlar konsorsumlari, o'qitishning yangi shakllari instituti ta'limni boshqarishning yangi tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Albatta, noan'anaviy turdag'i yangi ta'lim muassasalarini attestatsiya va akredatsiyadan o'tkazish muammosini hal etish muhim masala sanaladi. Bu muammoni hal etishda – „Ta'lim to'g'risida“gi qonunga tayaniladi. Ammo masofaviy ta'lim va ta'lim texnologiyalarini amalda qo'llashning huquqiy asoslari hali ishlab chiqilmagan. Bu ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. O'zbekistonda ta'limning rivojlanishi kadrlar tayyorlashga davlat buyurtmasi, ta'lim xizmatlari va ta'lim maxsulotlari bozorning shakllanishi hamda rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bu ta'lim sohasidagi menejmentning o'ziga xos jihatlarini belgilab beradi. Hozirgi vaqtida ta'limda pedagogik – texnologiyalarni tanlashga texnologik masala sifatida emas, balki ta'lim sohasidagi innovatsion menejment muammosi sifatida qaralmoqda. Bu muammoni muvaffaqiyatlari hal etish uchun barcha kichik tizimlar, ya'ni ta'lim tizimi elementlari o'rtaqidagi aloqalarni muvofiqlashtirish zarur.

Asosiy qism. Ta'lim sohasida innovatsiyalar yaratish va ularni keng miqyosda qo'llash jarayonida zamonaviy ta'lim tizimi shakllanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi bir nacha komponentlar birligidan iborat:

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari – texnologik innovatsiyalar;
- ta'lim sohasida yangi iqtisodiy mexanizmlar – iqtisodiy innovatsiyalar;

¹ Farhodova Maftuna Ilyos qizi, Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

- o'qitish, ta'lif olishning zamonaviy usul va metodlari - pedagogik innovatsiyalar;

- ta'lim sohasida yangi tashkiliy tuzilmalar va institutsional shakllar - tashkiliy innovatsiyalar. Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat mazmuni an'anaviy ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat mazmunidan bir muncha farq qiladi. Birinchidan, o'quv kurslarini ishlab chiqishda pedagogik faoliyat ancha murakkablashdi. Chunki uning texnologik assoslari juda tez rivojlanmoqda. U o'qituvchidan maxsus kasbiy malakalarni talab etadi, pedagogik usullarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, hozirgi zamon axborot texnologiyasi ishlab chiqiladigan o'quv materiallari sifatiga qo'shimcha talablar qo'yadi. Chunki ular barcha ta'lim oluvchilar, xususan, boshqa pedagoglar va ekspertlar uchun ochiq bo'ladi. Bu hol o'quv materiallarining sifati uchun nazoratni ancha kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, an'anaviy ta'limda o'qituvchi markaziy figura hisoblangan. Hozirgi zamon pedagogik jarayonining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, yangi axborot texnologiyalarni qo'llash jarayonida ta'lim oluvchi asosiy shaxs hisoblanadi, ya'ni ta'lim oluvchi o'zining o'quv jarayonini faol belgilaydi, ta'lim muhitini rivojlantirish yo'nalishini o'zi tanlaydi. O'qituvchining muhim vazifasi faoliyati davomida ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashdir. Bu ularning o'quv materiallarini, xilma-xil va juda ko'p axborotlarni, muvaffaqiyatli axborotlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, yuzaga kelgan muammolarni, oson hal etishlariga yordam beradi. Bugungi kunda jahon ta'lim hamjamiyatida o'qituvchining bu vazifasining ahamiyati alohida ta'kidlanmoqda. Shu bois pedagogika faniga yangi – "facilitator" - (fasiliteytor) atamasi kiritilgan. Kimki o'qishni, ta'lim olishni osonlashtirsa, ta'lim oluvchiga yordam bersa, o'shani – "facilitator" - fasiliteytor deb atashmoqda. Uchinchidan, taqdim etilgan o'quv materiallari o'qituvchi va ta'lim oluvchining izchil muloqot o'rnatishini taqozo etadi. Bu ular o'rtasida faol o'zaro ta'sir bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. An'anaviy ta'lim berishda sinfdagi talabalar bilan deyarli qayta aloqa o'rnatishmasdi. Bunda o'qituvchining butun sinf yoki auditoriya bilan umumlashgan qayta aloqasi ustuvorlik kasb etadi, uning alohida talabalar bilan aloqasi ancha kuchsiz bo'ladi. Hozirgi zamon kommunikatsion texnologiyalari bunday o'zaro ta'sirini ancha faollashtiradi. Bu o'qituvchidan qo'shimcha kuch-quvvat va mas'uliyat talab etadi.

Ta'lim – o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasidir. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanib borishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida taraqqiyotning yangi istiqbollarini ochib bermoqda. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar asosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib kelmoqda. Pedagogik muloqot uslublari.

Avtoritar uslubga ko'ra talabalar tomonidan barcha turdag'i faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barcha sifaat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag'batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko'rish orqali talabalarga ta'sir ko'rsatiladi. Hatto Talabalarning faoliyatları ijobjiy baxolangan vaqtida ham ularga bo'lgan ta'sir turli kesatiqlar bilan bayon etiladi.

Demokratik uslubga ko'ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida jamoaning fikriga tayanib ish ko'radi. O'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga harakat qiladi. Muhokamalar paytida barcha talabalarning ishtirok etishlari ta'minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlarni inobatga olib bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Demokratik uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini tushunib yetadi. Asosiy e'tiborni talabalarning yutuqlarini e'tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o'zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasi ko_rishga e'tiborni qaratadi. Har bir Talabaning yutug'i alohida e'tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko'radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini Hisobga olib, bajariladigan ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo'nalishi deb hisoblaydi. Pedagog talabalar bilan muloqotni o'rnatishda Iltimos, maslahatga tayanib ish ko'radi.

Liberal uslub pedagog va talaba munosabatlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta'minlaydigan uslub sifatida e'tirof etiladi. Bu uslubga ko'ra ish yuritadigan pedagog talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e'tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to'g'ri baxolab, jazolash zarur bo'lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma'qul ko'radigan pedagogi talabalar hayoti mutlaqo Qiziqtirmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Bu tarzda ish ko'ruvchi pedagog obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish bo'lmaydi. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat O'zi, balki uning ijobjiy ta'siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim. Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq Tashkil etish asosida suhabatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik. Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilishiga olib keladi: ehtiyyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhabatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik, o'zini juda yuqori yoki past qo'yish; haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish. Pedagog talabalarga samarali kommunikativ ta'sir ko'rsatish malakalarini o'zlashtirishi lozim. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish – talabalar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashish, Pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta'sir etishdir. Mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o'ziga xos o'ringa ega: Pedagogik takt – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligidir. Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Takt (dahldorlik) – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha obyektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan subyektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, Belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishidir. Shuni aytish mumkinki, avtoritar uslubda tinglovchiga darsning mazmuni, shakl, metod va vositalari pedagog tomonidan belgilanishi talabaning o'ziga bo'lgan

ma'suliyatni oshiradi, bu esa ularda o'ziga nisbatan talabchanlik paydo bo'lishiga olib keladi. Talabaning tashabbuslari rag'batlantirilmaydi Aksincha, buyruq va ko'rsatma berishi talabani yangi yutuqlar sari ilhomlantirmaydi. Bu esa talabada ta'lim olishga va ustozlarga nisbatan sovuqqonlikni paydo bo'lishiga olib keladi. Demokratik uslubda esa jamoga tayanib ish ko'rilib, unda talabalar o'z fikrlarini bemalol ayta olishadi, ularning fikrlari birlashtirilib, eng samaralisini talabalarning o'zlari tanlaydilar. Bunda talabaning darsda faolligi ta'minlanadi. Ularning tashabbuslari rag'batlantirilib, amalda qo'llash imkonini beradi. Bu jarayonda pedagog har bir talabaning individualigini inobatga olishi, ularning ishlarini to'g'ri taqsimlashga imkon beradi. Bu uslubdan pedagog foydalanganda nafaqat talabaning faoliyatini nazorat qilish va unga tuzatish kiritish balki, uning yutuqlarini ayta turib, kamchiliklarini o'ziga yetkaza olish orqali o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Liberal uslubda pedagog va talaba munosabatlarida kelishuvchanlik ko'rish mumkin. Bu uslubda pedagogning ish yuritishi ko'pincha, talabaning mas'uliyatsizligiga olib keladi. Bu jarayon esa pedagog obro'yiga putur yetkazishi mumkin. Pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish pedagogning o'z kasb mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishslashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli Yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihat muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

Xulosa. Ta'lim jarayonida zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'qituvchi faoliyatida, o'qituvchining o'rni va rolida, asosiy vazifalarida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar hozirgi zamon ta'limiga xos xususiyatdir. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ta'limning rivojlanishi, ta'lim texnologiyalarining amalda keng qo'llanilishi o'qituvchilar ishining kamayishiga olib kelmaydi, aksincha, ularning mas'uliyatini yanada oshiradi. Hozirgi zamon texnologiyalari asosida o'qitish pedagogik jarayonda ishtirok etuvchi barcha mutaxassislar faoliyati sifatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bu ish ta'lim jarayonini boshqarish va uning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Ta'lim sohasidagi innovatsion-texnologik menejment nafaqat texnologik, tashkiliy va iqtisodiy innovatsiyalarni boshqarishni, balki pedagogik innovatsiyalar menejmenti ya'ni yangi pedagogik texnologiyalarni, yangi metodlar va usullarni, pedagogik faoliyat metodlarini ishlab chiqish va ularni amalda joriy etishni boshqarishni nazarda tutadi. Texnologik innovatsiyalarni joriy etish natijasida yangidan-yangi pedagogik metodlar va uslublar, yangi ta'lim muhiti shakllanadi, tashkiliy tuzilmalar rivojlanadi. Ular o'qituvchi faoliyati xarakteriga va shu bilan butun pedagogik tizim rovojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos masalalarni keltirib chiqaradi. Bu masalalarni o'rganish esa alohida pedagogik muammo hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov.N.A., Usmonboyeva. M. H.*
- [2]. *Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari.*
- [3]. *22. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodok qo’llanma Inoyatov U. I, Muslimov N.A.*
- [4]. *Ro’ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi*